



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISIHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



**"MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI"**

**fanining o'quv dasturi (sillabusi)**

<b>Bilim sohasi:</b>	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
<b>Ta'lif sohasi:</b>	230 000 – Tillar
<b>Magistratura mutaxassisligi:</b>	70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya

Fan/modul kodi 302MFO'M 1 2		Fan/modul turi majburiy		Ta'lim tili o'zbek			Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023		
Semestr	Har bir semestrdaagi fan/modulning nomi		ECTS - Kreditlar	Haftalık dars soatları	O'quv masbg'ulotlari (soat)			Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
2	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	2	2	30	14	0	16	0	30
	Jami:	2	2	30	14	0	16	0	60

## 1. FANNING MAZMUNI

"Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanini o'qitishdan maqsad – magistrantlarni ta'llinning turli bosqichlarida til va adabiyot turkumidagi fanlar mohiyatini hamda ularni o'qitishdagi o'ziga xosliklarni, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar bilan tanishtirish, fan doirasida o'rganilanidan asosiy masalalarining mazmun-mundarajasini belgilash, ayni paytda talabalarни shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, sohaga oid nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nkmalarini shakllanitirishga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishning vazifasi magistrantlarni nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishga o'rnatish va pirovardida ta'llinning turli bosqichlarida til va adabiyot fanlarining eng muhim ilmiy-nazariy asoslari; til o'qitish va badiiy asar tahliliga bo'lgan yondashuvlarning turlari va mohiyatini; turli xildagi adabiyot fanlarining ilmiy-nazariy, badiiy-estetik imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga yo'naltirish metodikasini o'rnatish, zamonaviy yondashuvlar hamda ularning maxsus fanlarni o'qitishdagi o'mi haqida bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

– mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini; folklor adabiyotlari dialektologik materiallarni tahlil qilish va baholash mezonlarini; ularni o'qitishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini; dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli pedagogik texnologiyalarni jaib qila olishni, mutaxassislik fanlariga oid o'ziga xosliklar mayjudligini bilish va ularga ta'lim jarayonida alohida e'tibor berish; har bir fanga oid xususiyatlarning qator ichki va tashqi omillarga bog'liqligini, til o'qitish nazariyalarini; metod va postmetod tushunchalarini, postmetod ta'lim tamoyillarini,

til o'qitish strategiyalarini, til o'qitish jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillari haqida *tasavvurga (bilim)*:

– o'zbek adabiyoti, jumladan, xalq og'zaki ijodi turkumidagi fanlarni o'qitish bo'yicha maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliv ta'llimning bakalavriat bosqichi mohiyati va prinsiplarini o'zlashtirishi; o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olishi; urganilpaetgan badiiy asarning dialektal xususiyatlarini, xalq og'zaki ijodiga xos manbalarni mustaqil tahlil qila bilishi; darslarda milliy o'zlik va mustaqillik g'oyalarini targ'ib qila olishi, magistrant olingan nazariy bilimlari asosida ta'llimi rejalashtirish, uni samarali dars tashkil etish, o'quvchining bilim va ko'nikmalarini adekvat baholay olish va unga mos ravishda o'qitish strategiyalarini *bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma)*;

– ta'llimning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish, shuningdek, ta'llimning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta'llimtarbiyaning metod va usullarini amaliyatga tarbiq eta olish, shuningdek, yoshlarni adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarga yo'naltira bilish hamda til o'qitish nazariyalarini va metodlarini tanqidiy tahlil qila olish, til ta'llimi jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarning ta'sirini baholay olish va shu asosda samarali ta limni rejalashtirish, o'quvchining bilimini adekvat baholash *ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim*.

### **3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR**

Fanni o'qitishda SWOT, VEN diagrammasi, T-sxema, muammoli ta'llim, interaktiv usullar, taqdimot, individual loyiham, hamkorlikda ishlash metodlaridan foydalilanadi.

### **4. TALABALAR KREDITLARNI OLİSH TARTIBI**

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Olyi va o'rta maxsus ta'llim vazirining 2018-yil 9-avgustdaggi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Olyi ta'llim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

#### **1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida og'zaki shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki (taqdimot) yoki test shaklda o'tkaziladi.

*Izoh:* Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatları müyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

## **2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

## **5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI**

### **1-semestr**

#### **1. Ma'ruba mashg'ulotlari**

<b>Nº</b>	<b>Ma'ruba mavzulari</b>	<b>Qisqacha tavsisi (kalit so'zlar)</b>	<b>Soyat</b>
<b>1</b>	<b>Maxsus fanlarni o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va uning tanqidiy tablibi.</b>	XX asr folklorshunoslik va dialektologiyaga xos xususiyatlar, ularning o'qitimshining tanqidiy tahlifi. Fanni o'rganish obyekti, maqsad va vazifalari. Ona tili ta'limi uchun huquqiy-me'yoriy asos hisoblangan hujjatlari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tilga oid Farmonlari mazmun-mohiyati.	<b>2</b>
<b>2</b>	<b>Til o'qitish nazariyalari. Til o'qitish metodlarining tanqidiy tahlili.</b>	Til o'qitish va til o'qitish malakasining o'zaro munosabatidagi konsepsiylari. Ilmiy-tadqiqiy konsepsiya. Nazariy-falsafiy konsepsiya. Qadriyatlarga asoslangan konsepsiya. Badiiy mahorat konsepsiysi. Tilga asoslangan metodlar. O'rganuvchiga asoslangan metodlar. O'rganishga asoslangan metodlar.	<b>2</b>
<b>3</b>	<b>Postmetod ta'lim</b>	Postmetod ta'lim tushunchasi va	<b>2</b>

	<b>tushunchasi</b>	<b>tamoyillari</b>	
<b>4</b>	<b>Bltum taksonomiyası. Üning nazariy-metodologik asosları</b>	O'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim. T'llimda motivatsiya.	<b>2</b>
<b>5</b>	<b>O'rganish imkoniyatlari va strategiyalari.</b>	O'quv rejalarini va dasturlarining cheklanganligi. O'qituvchi va o'quvchining roli. Dars davomida va darsdan tashqarida o'rganish imkoniyatlari. O'rganish imkoniyatlarini oshiruvchi makrostrategiyalar.	<b>2</b>
<b>6</b>	<b>Mustaqil ish va uni fashkit etish. Bilimni nazozorat qilish va baholash</b>	Mustaqil ish va mustaqil ta'lim, talabalar vaqtini taqsimlash, talabalar bilimini sinash va baholash shakkllari, jahon tajribasi	<b>2</b>
<b>7</b>	<b>Ta'lim aktlari monitoringi</b>	Dars kuzatish modellari	<b>2</b>
<b>Jami:</b>			<b>14 s.</b>

## 2. Amaliy mashg'ulotlar

<b>Nº</b>	<b>Amaliy mashg'ulot mavzulari</b>	<b>Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)</b>	<b>Soat</b>
1.	Til ta'limi va til standarti masalasi	O'quv-me'yoriy hujjatlar tahlili.	<b>2</b>
2.	Maxsus fanfarni o'qitishda qo'llaniladigan o'qitish metodlari tanqidiy tahlili. Ta'lim shakkllari.	Mutaxassislikka oid fanfarning o'qitilishi. Metodika va metodlar	<b>2</b>
3.	O'qish, yozish, tinglash va gapirish malakalarini shakkllantirish	Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma malakalarini oshiruvchi omillar	<b>2</b>
4.	Til o'qitish nazariyaları. Til o'qitish metodlarining tanqidiy tahlili	O'zbek tili davlat tili, ikkinchi til va xorijiy til sifatida o'qitilishi.	<b>2</b>
5.	Folklorshunoslik va dialektologiyani o'qitishdag'i yondashuvlar.	Ta'limning turli bosqichlarida adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganishga oid dars ishlannalarini yaratish	<b>2</b>
6.	Adabiyot darsliklarida folklor materiallarining berilishi. Ullarni tahlil qilish tamoyillari	Darsliklar tahlili. Linnistik tahlil. Badiiy tahlil	<b>2</b>
7.	O'rganuvchiga asoslangan metodlar. O'rganishga asoslangan metodlar.	Umumiy metodlar. Xususiy metodlar	<b>2</b>
8.	Maxsus fanlarni o'qitishda loyihalash va rejalashtirishning o'mi. Taqdimotlar yaratish.	Dars ishlansmasi yaratish	<b>2</b>
<b>Jami:</b>			<b>16 s.</b>

### 3. Mustaqil ta'lif ishlari

"Mustaqil ta'lif va mustaqil mashg'ulotlar" qismida mustaqil ta'lifning shakli va mazmuni, mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar, mustaqil mashg'ulotlar jarayonida ta'lif oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan ishlar referat, esse, mustaqil (ijodiy) ish, muammoli ma'ruba va boshqalar keltiriladi;

Nº	Mustaqil ta'lif mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1	Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan o'qitish metodlari tanqidiy tahlili. Ta'lif shakkari.	ma'ruba	Mutaxassislik fanlari. Metodika va metodlar	4
2	Lingvistik bilimni kontekstda berish	amaliy	Matn bilan ishlash	4
3	Folklor asarlarini o'qish texnikasi	amaliy	Talaffuz, o'qish texnikasi	4
4	Folklor asarlari tahlili: Badiiyati tahlili, lingvistik tahlili	Ma'ruba, amaliy	Til va uslub, til vositalari	6
5	Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash	Ma'ruba, amaliy	Ta'lilda kredit, kredit texnologiyalari	6
6	Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida modulli yondashuv. Masofaviy ta'lif	Ma'ruba, amaliy	Modulli ta'lif, masofaviy ta'lif	6
				Jami: 30 s.

### 6. FANNING KURS ISHI MAZMUNI

Mazkur fandan kurs ishi rejalashtirilmagan.

### 7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

#### Asosiy adabiyyotlar

- Azimova I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. –Toshkent, Hilol-Nashr. 2020.

#### Qo'shimcha o'quv adabiyyotlari

- Tojiboyeva D., Yo'ldoshev A. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. –Toshkent, Aloqachi. 2009, 568 bet.

### Internet saytlari

1. <https://staff.tijame.uz/storage/users/425/books/GF4nZhkCOAqWyKdoTbQ1Jk6hO19PY18iKcSATyj.pdf>
2. <https://staff.tijame.uz/storage/users/163/books/OpUkgQCvigZwqntKWxxGxarNcKKeTv4wrlIKa3zc.pdf>
3. [https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl\\_1793\\_20210913.pdf](https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_1793_20210913.pdf)
4. <http://ilmiv.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20fanlarni%20o%60qitish%20metodikasi.pdf>
5. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi

### 8. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022-yil "24.08" dagi "1" sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrasi mudiri, f.f.d., professor

S.Ashirboyev

(imzo)

Tuzuvchi:

M.Rahmatov

(imzo)

"Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Taqrizchilar:

Mavlonova K.

(imzo)

ToshDO'TAU "Ona tili va adabiyot ta'limi" kafedrasi dotsenti, PhD.;

Umruqsova M.

(imzo)

ToshDO'TAU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi dotsenti, (PhD).